O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
DAVLAT KITOB PALATASI
INV.№

1-sentabr – O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligi kuni

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

TONG YULDUZI

2009-yil
1-sentabr
N:35-36
(66732-33)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

O'n sakkizga to'lding sen bu kun,
Qo'shaloq to'y muborak, yurtim!





CHORLAR MAKTAB QUCHOG'I

Oftob tongdan nur sochar
Yurtimning hur bog'iga.
Maktab bizni chorlaydi,
Beg'ubor quchog'iga.
Bugun safga tizildik,
Bizdan o'yinlar yiroq.
Hayajon, sog'inch bilan,
Chalindi ilk qo'ng'iroq.
Qadrdon maktabimiz,
Ko'rkam, orasta biram.
Eng aziz dargoh bo'lgan,
Darsxona yorug', shinam.
Quvnoq, ilmga chanqoq,
Yig'ilgan sinfdoshlar.
Ustoz iftixor bilan,
Istiqlol darsin boshlar.

Nasiba AHMADJONOVA

O'zbekiston nomini dunyoga tarannum etgan tengdoshlaringiz bilan haqli ravishda faxrlanamiz

YURAGIMGA JOYLAB OLGANIM

Ulug' yurtimning erka bolasi!

Erka so'zini behudaga ishlatayotganim yo'q. Siz shu aziz ota yurt, ona Vatanning haqiqiy erka o'g'lonlari, ko'zining oqi, ertangi ishonchi, bo'lajak suyanchiqlari-yu, kelgusida uning beshigini tebratuvchi ulug'larisizlar. Ayting-chi, sizlarni sevmaslik, ardoqlamaslik mumkinmi?! Sizlarning olamingiz eng pokiza, eng dilbar olam! Nuroniy borki, bolalikni qo'msaydi, bolalikni orzu qiladi, ammo, afsuski, uni orqaga qaytarishning iloji yo'q. Shu bois, yoshlik yillari haqida gap ketsa, keksalarimiz birinchi o'rinda yoshlikning qadriga yetishni, bu davrda avvalo ilm olib, turli kasblar sohibi bo'lishni bot-bot ta'kidlashadi.

Qaysi kuni ustozimizni qutlagani bordik. U kishi juda shod bo'lib duo qildilar-da, so'ng: – Qanday ajoyib kunlarni ko'ryapman, mustaqilligimizning o'n sakkiz yillik bayramlarini ham ko'rish nasib etdi. Toshkent-u azimni aytmaysizmi? Keng, ravon yo'llar, ulug'vor binolar, yam-yashil bog'lar, turli ranglarda tovlanuvchi favvoralar... Bularning bari qalbni hayratga soladi. Poytaxtimizdagi birgina «Yoshlar ijod saroyi»ni qarang. Qanchalik go'zal, qanchalik bebaho inshoot. Shu go'zal binoda yoshlarning go'zallik yaratishlariga ishonaman. Xullas, Toshkent hech qachon bunchalik go'zal bo'lmagan. Bilasizlarmi, menga yana nima yoqdi, Mustaqillik maydonida, betimsol go'zal joylarda shataloq otib, quvnab yurgan bolalarning ko'zlaridagi baxtiyorlik, shodlik yoqdi. Bu eng katta baxt. Bolalar va o'smirlar, yoshlarimiz uchun shunchalik ko'p shart-sharoitlar yaratilyaptiki, bularni so'z bilan ifodalab bo'lmaydi. Ilohim, yurtimizga ko'z tegmasin.

Muhtaram Prezident Islom bobongiz «Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash – bizning oliy maqsadimiz» kitoblarida Siz haqingizda alohida to'xtalib, shunday degan edilar:

«Bir narsani chuqur anglab olishimizni istardim. Biz o'z oldimizga qo'ygan ezgu orzu-niyatlarimizga yetmoqchi bo'lsak, mamlakatimiz taraqqiyotini jadal rivojlantirmoqchi bo'lsak, Vatanimizning xalqaro maydondagi o'rni va nufuzini yanada oshirmoqchi bo'lsak, jondan aziz farzandlarimizning baxt-u kamolini ko'rmoqchi bo'lsak, buning asosiy sharti va omili faqat bitta – hayotga kirib borayotgan yosh avlodni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, uning oldida keng yo'l ochib berish, buning uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etishdan iborat, deb bilaman. Va ishonamanki, biz bu yo'lda o'z maqsadlarimizga albatta yetamiz».

E'tibor bering-a, bu yerda barcha imkoniyatlarimizni safarbar etish haqida gap boryapti. Misollarga o'tsak, ko'ramizki, o'tgan besh yilda mamlakatimizda 9765 ta maktabning 8500 tasida qurilish-tiklash ishlari bajarildi. Jumladan, 351 ta yangi maktab binosi qurildi. Hozirgi kunda mustaqillikning oliy imoratlari bo'lmish maktablarda 6709 ta kompyuter, 9390 ta biologiya xonalari, 9487 ta kimyo va 9875 ta fizika laboratoriyalari mavjud. 25 mingdan ortiq jismoniy tarbiya o'qituvchilari 6099 ta sport zallarida sizlarni chiniqtirish, sog'lomlashtirish hamda yurtimiz sharafini himoya qiladigan sportchilar qilib yetishtirish yo'lida ter to'kyaptilar. «Umid nihollari» sport musobaqalari allaqachon sizlarning haqiqiy bayramlaringizga aylangani juda quvonchli holdir.

Aziz yurtimizning aqlli bolalari! Mustaqil Vatanimizni jondan sevuvchi idrokli, kamtar, o'z so'ziga va fikriga ega baxtiyor avlod! Qanday ajoyib lahzalarda Siz bilan suhbatdosh bo'lyapmiz. Mustaqilligimizning 18 yilligi, azim Toshkentning 2200 yilligi bayram qilinayotgan ayni kunlarda jahon san'at ahlining nigohi ko'hna va shavkatli Samarqand shahrida o'tayotgan «Sharq taronalari» VII xalqaro musiqa festivaliga qaratilgan. Sen esa jonajon maktabing quchog'iga otlanayapsan. Ilm bog'ining eng xushbo'y gullari sizlarni eng ezgu tuyg'ularga oshno etayotgani aniq. Dunyoning turgan-bitgani ilmdan iborat. Keng falakda sayyoramizning uchib yurgani – aql bovar qilmas ilm. Minglab behisob yulduzlar – hali qo'l yetmagan sirlar makoni ham sizlarni kutib turgan boy ilm manbai. Hatto ariqda suv ham, uning oqishi ham ilm. Bu ilmlarni sizlar faqat kitoblardan olasiz. Sizlarga esa ustozlar rahnamolik qilishadi.

O'n sakkiz yil! Aziz yurtimning erka bolalari!

Bugungi quvonchli tantanalarda sizlarning ham o'z o'rningiz bor. Bugun mamlakatimizning qaysi bir sohasiga qaramang, uning sharafini himoya qilib, jonajon O'zbekiston nomini dunyoga tarannum etgan tengdoshlaringiz bilan haqli ravishda faxrlanamiz. Biz yil mobaynida ularning har biri haqida hikoya qilib bordik va bugungi sonimizda ana shunday intiluvchan, izlanuvchan, eng muhimi, yurtim deb yashab, ona-otasi, ustozlari, maktabdoshlari, mahalladoshlari e'tiboriga tushib, hurmatga sazovor bo'layotgan tengdoshlaringiz bilan tanishtirib o'tamiz.

Yangiyo'llik qalamkash singlimiz Nasiba Ahmadjonovaning quyidagi satrlari qalbingizning yoniq tuyg'ulariga esh bo'ladi:

Dunyolardan bittagina
Marvaridni saylab oldim.
Men Vatanni mittigina
Yuragimga joylab oldim.

Sizlar Vatanni qalblaringizga joylab olgan baxtiyor yoshlarsizlar. Esimda: Andijonda, Namanganda, Surxondaryoda, Samarqandda sizlar bilan bo'lgan uchrashuvlarda yurtimiz madhiyasini ehtiros bilan ijro etdingiz. Kattalar sizlarga havas bilan qarashdi.

«– Qanday chiroyli bolalik! – dedi Po'lat Hamdam degan otaxoningiz. – Bularni ko'rib, yana yoshargim keldi!»

Shu birgina so'z, birgina e'tirofning o'zi ham sizning bugungi baxtli hayotingizni va buyuk kelajagingiz borligini ko'rsatib turibdi. Ishonchimiz komilki, sizlar shu aziz Vatanimizni, jonajon yurtimizni yanada sharaflarga burkaysizlar! Barchangizga qo'sha-qo'sha bayramlar muborak bo'lsin. Ustozlaringizni, ota-onalaringizni shu qo'shaloq bayramlar bilan tabriklashni ham unutmang!

To'lqin HAYIT

USTOZIMNI SOG'INDIM

Mana, ko'z ochib yumguncha, yoz fasli ham, yozgi ta'til ham o'z poyoniga yetdi. O'quvchilar maktabni, o'qishni, do'stlarini juda-juda sog'inganlar. Men hozirda Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti qoshidagi xorijiy tillar akademik litseyida tahsil olyapman. Ta'tilda jonajon litseyimni, bilimga chanqoq do'stlarimni, mehribon ustozlarimni, ayniqsa, fidoyi o'qituvchimiz Nafisa opa Yusupovani juda sog'indim. Ularni nafaqat men, balki litseyimizning barcha o'quvchilari sog'ingan bo'lsalar kerak. Chunki opa o'z onamizdek mehribonlar. Ular o'z fanlari — fors tilining mohir ustasi hisoblanadilar. Ustoz bizlarga qo'llaridan kelgancha bor bilimlarini beradilar.

Bugun jonajon litseyimizda birinchi qo'ng'iroq ovozi yangradi.

Keling, do'stlar, astoydil o'qiylik! Tabarruk yurtimizning munosib farzandlari bo'laylik!

Shahlo HOLMATOVA

TAHRIRIYATDAN:

Shahlo Holmatova eng faol yosh muxbirlarimizdan. Uning o'ziga xos qalami, uslubi bor. Dolzarb mavzudagi qiziqarli maqolalari bilan gazeta mundarijasini yanada boyitishga hissa qo'shib kelayotgan yosh qalamkashdan umidimiz katta.

(Boshi o'tgan sonlarda)

SHE'RIYAT OLAMIGA SAYOHAT

BOLALIKDAGI QIZIQISHLARIM

Bolalikdagi qiziqishlarimning ijodga qiziqishimga qanchalar aloqasi bo'lgan, ochig'i, hozirgacha o'ylab ko'rmaganman. Biroq, ular haqida senga hikoya qilib berishdan o'zimni sira tiya olmayapman. Bahonada bolaligimni xotirlab olaman-da.

Aytib o'tganimdek, 8-12 yoshlik chog'im 1970-1974-yillarda kechgan.

Oilada to'ng'ich farzandman. Dadam qishloq dalasida paxta yetishtirar, opam (ya'ni, onam) maktabda boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim berardi. Shuurimga o'qituvchining o'g'li hamma narsani bilishi, hamma narsada birinchi bo'lishi va

She'rning bir uchi topqirlikka taqaladi

Men xalqimizning sevimli va qadrli kuni – 1-sentabrda tug'ilganman. Har yili ota-onam tug'ilgan kunimga nima sovg'a qilishni so'rashganida, Mustaqillik maydoniga olib borishlarini aytaman. Chunki bu maydonda sayr qilishni juda yaxshi ko'raman. Bu yer, ayniqsa, kechki payt juda chiroyli ko'rinadi. Rangli chiroqlar, favvoralar xuddi ertaklardagi sehrli saroylarnikiga o'xshaydi. Dam olish kunlari ham dadam bizni kechki sayrga shu maydonga olib boradilar.

MUSTAQILLIK MAYDONIDAGI TUG'ILGAN KUN

Shunday qilib, har yili tug'ilgan kunimni sevimli maydonimda nishonlaymiz. Dadam men va ukamga rang-barang sharlar olib beradilar. Maydonning to'ridagi Baxtiyor ona siymosi aks ettirilgan haykalni ko'rgansiz-a? Onamning aytishlaricha, bu biz kabi baxtli oilalarning ramziy timsoli ekan. Mustaqillik maydoni yurtboshimiz tashabbuslari bilan bunyod etilgan bo'lib, unda tinch va go'zal Vatanimiz aks ettirilganga o'xshaydi. Zero, shahar ko'chalarida katta qilib yozib qo'yilgan bir gapni o'qigan edim: «O'zbekiston Olloh nazari tushgan yurt».

Menimcha, butun O'zbekistondagi bolalar bu maydonni yaxshi ko'rishadi. Chunki bu yerda doim tengdoshlarimning ota-onalari bilan sayr qilib yurishganining guvohi bo'lganman. Shoirlar yozganiday, «Yurtimiz yuragi tinch uyimizning ayvoni bo'lgan» bu maskanni xorijlik mehmonlar ham alohida ta'riflashadi. Yurtboshimizga yo'llanayotgan tabriklarni oynayi jahon orqali eshitganimda, Italiyaning Osiyo va O'rta yer dengizi mamlakatlarini tadqiq etish instituti Bosh kotibi Antonio LOKKE bu bosh me'moriy obidani «O'zbek xalqining faxri va shijoati ramzi», deb ta'kidladi. Yana uning aytishicha, bayram arafasida italiyaliklar ham bizning Mustaqillik va Ezgulik monumentimizni ko'rishga kelishar ekan. Men ham bejizga tug'ilgan kunimni shu yerda o'tkazishni xohlamayman-da! Bilasizmi, o'tgan yili dadamlar bayramga kelgan bir xorijlik mehmon bilan suhbatlashib qolganlarida, o'sha kuni mening tug'ilgan kunim ekanini aytgandilar. Chet ellik janob esa meni ko'tarib olgancha suratga tushgan. Menga o'z yurtidan olib kelgan kichik sovg'asi – ajoyib ruchkasini berib, «Doimo yaxshi o'qib, kelajakda bizning yurtimizga bilim olishga borgin», deb niyat qilgan. Uning gaplarini menga dadam tarjima qilib berganlarida, men albatta o'sha janobning aytganini bajaraman, deb o'zimga so'z berganman. Eh, shunday qilib, bu kunni, bu bayramni men har yili intizorlik bilan kutaman. Bu kun eng quvonchli kun, bu maydon esa eng mo'jizaviydir.

Robiya XAYRULLAYEVA,
Toshkent shahar,
Shayxontohur tumanidagi
34-maktabning
5-«G» sinf o'quvchisi

Odina JAMOLDINOVA,
Respublika «Kamalak» bolalar tashkiloti raisi

SAFIMIZ KENGAYADI!

Mustaqil O'zbekistonimizning baxtli farzandlarini, jumladan, «Kamalak» bolalar tashkilotining a'zolarini ulug' bayram bilan samimiy muborakbod etaman.

Aminmanki, siz aziz bolajonlar, Mustaqilligimizning 18 yilligi bayramiga a'lo o'qishingiz, namunali xulqingiz, faolligingiz bilan munosib sovg'a tayyorlagansiz. O'zingiz yashab turgan shahar, qishloq va mahallalarni obodonlashtirish ishlarida ham qatnashib, ozod Vatanimizning obodligi yo'lida sidqidildan mehnat qilmoqdasiz.

Har yili «Kamolot» YOIH hamda «Kamalak» bolalar tashkiloti tomonidan mustaqillik bayrami arafasida turli loyihalar o'tkazilishi an'anaga aylangan bo'lib, bu yil siz «18 yosh – «Kamolot» yoshim, Mustaqillik mening tengdoshim» loyihasida ishtirok etib, imkoniyati cheklangan tengdoshlaringizni, kam ta'minlangan oilalar farzandlarini bayram bilan tabrikladingiz.

Shuningdek, bayram arafasida 10 yoshga to'lgan 4-sinf o'quvchilarini Respublika «Kamalak» bolalar tashkiloti a'zoligiga qabul qilamiz.

Demak, safimiz yanada kengayadi. Yurtboshimiz orzulagandek, aqlli, dono va baxtli bo'lishingiz uchun barcha sharoitlar yaratilgan mamlakatimizning sodiq farzandlari bo'lishga bundan keyin ham intilishingizga ishonaman.

Ulug' ayyom qutlug' bo'lsin!

o'z tengdoshlariga namuna ko'rsatishi kerak, degan tushuncha o'rnashib qolgan. Shu bois, har narsaga qiziquvchanligim ortgandan ortib borardi.

Ko'p narsalarni, masalan, koptokdan tortib hushtakkacha, rubobdan tortib kamongacha – barini o'zim yasab olishga qiziqar edim. (Holbuki, o'sha paytlarda prima rubobim ham, velosipedim ham, to'pim ham bor edi.) Endi bilsam, buyumlarni mustaqil yasab, zavqlanar ekanman. Darvoqe, qo'shnilarimning hammasi qiziquvchan bolalar edi.

Biz yashik yog'ochiga sim bog'lab, rubob yasab olardik. Koptogimiz teshilib qolsa, o'rniga qog'oz yoki eski lattalarni o'rab-chirmab, besh daqiqa ichida to'p yasab, o'yinimizni davom ettiraverardik. Gugurt qutilaridan telefon yasaganmiz desam, ishonavering.

Endi o'ylab ko'rsam, ana shu topqirliklarimiz, yangiliklarga o'chligimiz mening «she'r» yozishimga turtki bo'lgan ekan. She'rning bir uchi topqirlikka borib taqaladi. Sen buni yodingda tut! Qofiya, bo'g'in, turoq kabi o'lchov, unsurlar she'rning tashqi ko'rinishi, ustki «libosi» hisoblanadi.

Keyinchalik bildimki, she'r o'z-o'zidan emas, balki nimadir, qandaydir voqea-hodisa sabab bo'lib, ma'lum bir holatda, ya'ni ilhom kelganda yozilar ekan. To'g'rirog'i, yozilajak satrlar dastlab ko'ngilda tug'ilib, so'ng qog'oz betiga tushar ekan. She'rning topqirlik mahsuli ekanini, unda qandaydir o'ziga xos fikr, holat, his-tuyg'u aks etishi lozimligini, ya'ni fikr, o'y, mushohada ma'lum bir «yolg'on»ga «qorishtirilib» berilishi shartligini men ancha keyin, taxminan 20 yoshlarimda bilganman. Ungacha gazeta-jurnallarda 50 dan ortiq she'rlarim chiqqan bo'lsa-da, nima she'r-u nima she'r emasligini birovga tushuntirib berolmaganman. O'zim ham tushunolmaganman.

Bir kuni qanday voqea ro'y berganini bilishni istaysanmi? Undan avval, senga «Alifbe» bayrami va adabiy-badiiy uchrashuvda nima uchun hayajonlanganimni so'zlab beraman. Bu hikoyam ham she'r haqidagi tasavvuringni boyitsa, ajabmas...

Abdurahmon AKBAR
(Davomi bor)

Kelajakda qishlog'imiz sha'nini tog'lar qadar yuksaltiramiz

QISHLOQ TARAQQIYOTI – YURT OBODLIGI, XALQ FAROVONLIGIDIR!

«Qishlog'im – qalb ardog'im» tanloviga

BEKORCHILIK BEGONA O'LDI



Men Ruslan Boymurodov bo'laman. Gazetada berilgan «Qishlog'im – qalb ardog'im» tanlovida ishtirok etish maqsadida, o'zim tushirgan suratlarni yuboryapman. Suratlarim ma'qul keladi, deb umid qilaman.

Darvoqe, o'zim haqimda ikki og'iz so'z: men Qashqadaryo viloyati, Koson shahridagi 9-maktabning 8-«A» sinf o'quvchisiman. Yangi o'quv yilini yangi rejalar-u yaxshi kayfiyatlar bilan boshlamoqdaman. Chunki ta'tilda mazza qilib dam oldim. Qanday, deysizmi? Bekorchilik begona bo'ldi. Tuman «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati qoshida tashkil etilgan «Kompyuter savodxonligi» to'garagining faol a'zosi bo'ldim. Hamda sportning futbol turi bilan shug'ullandim.

Istiqlol yillarida qishlog'imiz yanada ko'rkamlashdi, Ollohga shukur, deyishadi duogo'y bobolarim.

Pillamiz bu tillamiz, bolam!

Qishloq taraqqiy etsa, yurt obod bo'ladi, xalq farovonlashadi. Shu sababdan ham hukumatimiz tomonidan qishloqlarga katta ahamiyat berilmoqda. Ushbu yilni «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» deb nomlanishi ham yuqoridagi fikrimiz isbotidir. Ayniqsa, o'quvchi yoshlar tomonidan o'z qishloqlaridagi bunyodkorlik, obodonlashtirish ishlarini ziyraklik bilan kuzatib borishlari e'tiborlidir. Shu bilan birga, hamqishloqlari haqida yozar ekanlar, qalblari faxr-iftixorga to'laligi bizni yanada quvontiradi.

Bundan tashqari, tahririyatimizga shaharlik o'quvchilarning qishloq hayotini kuzatishlari, hayajonlari bitilgan xatlar ham yo'q emas. Bugun e'tiboringizga ana shunday maktublardan birini havola etyapmiz.

QISHLOQ MENGA YOQADI

Iyul oyida singlim, oyim va men Nurobod tumaniga qarashli Jom qishlog'ida ta'tilda bo'lib qaytdik. Adam shu qishloqda tug'ilganlar. Bu yerda yaqin qarindoshlarimiz yashashadi.

Qishloq juda ham chiroyli, odamlari esa g'aroyib. Ular ichimlik suvi sifatida buloqlardan foydalanishadi. Buloqni toza saqlashga harakat qilishadi.

Har bir hovlida sigir va buzoqlar, qo'y-qo'zilar, echkilar bor. Jonivorlarni kattalar qatori bolalar ham bor mehrini berib boqishadi.



Transport vositasi sifatida ot va eshaklardan ham ko'p foydalanishadi.

Har kuni tong sahar uyimizning oldidan poda o'tadi, kechga borib qaytadi. Ular hovlilarini o'zlari topib borisharkan. Bu hol meni va singlim Dilbaroyni judayam hayratga soldi. Adashmaganini qarang-a!

Men u yerda Shahzod va Shohruh ismli bolalar bilan tanishdim. Ular bilan birga vaqtim juda chog' o'tdi. Chunki do'stlarim bilan eshakka minib qirlarga chiqdik. Buloqdan suv olib keldik. Xabarchilik qildik. Turli-tuman o'yinlar o'ynadik. Sigirlarni podaga qo'shdik.

Menga, ayniqsa, buzoqchalarga xashak, suv berish, sigirlarni podaga qo'shish va qaytarish, buzoqcha-yu qo'zichoqlarni erkalatish, tovuqlarga don berish juda yoqib qoldi. Bobomning Bo'ynoq, Oqtoy ismli itlari bilan ham o'rtoq bo'ldim. Ular bilan mazza qilib o'ynadim. Suyib erkalatdim.

Qo'chqor bobom qirga bodom, uzum, qovoq, tarvuz ekibdilar. Sanjar akam bilan birgalikda bobomga qarashdim. Begona o'tlarni yuldik. Chelakda suv tashib, ekinlarni sug'ordik.

Xullas, qishloqda o'tgan kunlarim bir zumda o'tib ketdi. U yerdan ketgim kelmadi. Uyga, shaharga qaytar ekanman, biroz yig'lab ham oldim. Chunki qishloq menga juda yoqqan edi-da!

Muhammadjon PRIMOV,
Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi 592-bog'cha-maktab majmuasining 3-«A» sinf o'quvchisi

SAMODEK BAG'RI KENG

Men Toshkent tumanining eng chekka va eng go'zal maskani, Bo'zsuv bo'yida joylashgan «Navro'z»imda tug'ilib, voyaga yetdim.

Bag'ri keng go'shamiz kundankunga go'zallashib, obod bo'lib borishida har bir hamqishlog'imning o'z o'rni bor. Yuzlab ziyolilar, fan doktorlari, fan nomzodlari, shifokorlar, olimlar, tajribali o'qituvchilar, fermerlar qishlog'imizni yuksaltirish uchun bor kuch-g'ayratlarini ishga solishmoqda.

Biz yoshlar esa ular ishining davomchilarimiz. Kelajakda qishlog'imiz sha'nini tog'lar qadar yuksaltirishga uning taraqqiyotiga o'z hissamizni qo'shamiz.

Shahnoza, Shoira QOBILOVAlar,
Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi 32-smaktab o'quvchilari

Qudrat NAZAROV Samarqand viloyati, Qo'shrabot tumanidagi 81-maktabda o'qiydi. Chizgan rasmini «Qishlog'imda gullar ko'p» deb nomlabdi.

«QUVNOQ TANAFFUS»



DAFTARINGIZ QANDAY BO‘LSIN?

Yaqinda onam bilan o‘quv qurollari sotib olish uchun maktab bozoriga borgandik. Narsalarning ko‘pligidan kishining ko‘zi qamashib ketadi. Ayniqsa, muqovasi rang-barang rasmlar bilan bezatilgan daftarlarni aytmaysizmi?

Onasi bilan o‘quv qurollari sotib olayotgan bir qizaloq diqqatimni tortdi. U onasi ko‘rsatgan daftarlarni yoqtirmay, ustiga mushukchalar-u kuchukchalar tasviri tushirilgan daftarlarni olib berasiz, deya xarxasha qilardi. Onasi muqovasida karra jadvali bor daftar uning uchun foydaliroq ekanligini tushuntirishga harchand urinmasin, qizcha, menga chiroylisi kerak, deb turib oldi. Bolada, rang-barang suratlari e’tiborini tortyapti.

Agar mendan: «Senga qanday daftar yoqadi?» deb so‘rashsa: «Muqovasida turli rusumdagi mashinalar-u, estrada xonandalarining tasviri tushirilgani emas, buyuk allomalarimizning hikmatli so‘zlari, ibratli xalq maqollari, karra jadvali aks ettirilgani», deb javob bergan bo‘lardim. Daftarlarning muqovasiga emas, sifatiga ko‘proq e’tibor berilsa, varaqlari oppoq bo‘lsa, ayni muddao bo‘lardi. Chunki daftarlarning rangi qoraroq bo‘lsa, ko‘zimiz tez charchab qoladi.

Bu mening shaxsiy fikrim, albatta. Xo‘sh, tengdoshlarim, bu borada Sizning fikringiz qanday?

Mahbuba QOIROVA,
Buxoro viloyati, Shofirkon tumanidagi 32-maktabning 5-sinf o‘quvchisi

QIZIQARLI MASALALAR

Qanday uch sonning ko‘paytmasi ularning yig‘indisiga teng?

99-97+95-93-91-89-...+7-5+3-1 (barobarni yozish kerak.)

Maktabda 375 o‘quvchi bor. Ularning ichida yilning bir kunida tug‘ilgan o‘quvchilardan hech bo‘lmaganda ikkita topilishini isbotlang.

Agar kvadratning perimetri 10 foizga oshirilsa, uning perimetri necha foizga teng bo‘ladi?

QANDALAR

– Agar boshing ikkita bo‘lganida, nima qilarding?

– Bittasini menga ahmoqona savol beradigan do‘stimga berardim...

Havo ochiq kunlarining birida kattakon soyabon ko‘tarib ketayotgan qizaloqdan bir ayol so‘radi:

– Qizim, yomg‘ir yog‘ayotgani yo‘q-ku, nega soyabon ko‘tarib olding?

– Yomg‘ir yoqqanida, uni dadam tutib ketadilar-da...

O‘qituvchi:

– Karim, kundaligingni olib kel.

O‘quvchi:

– Uni uyda qoldiribman, ustoz.

O‘qituvchi:

– Essiz, senga «5» baho qo‘ymoqchi edim-a...

O‘quvchi:

– Unday bo‘lsa, qarab ko‘ray-chi, balki papkamdadir.

HAM MAROQLI, HAM MAZMUNLI

– Men o‘qituvchiman. Har tong maktabga xuddi bayramga oshiqayotgandek mamnuniyat bilan orziqib boraman. Boisi, o‘z kasbimni juda sevaman. O‘quvchilarim maktabga shunchaki kelib-ketmay, puxta bilim olishlarini, hatto tanaffus paytlarini ham mazmunli o‘tishini istayman. Ularning dunyo geografiyasiga oid bilimlarini sinash, mustahkamlash maqsadida, quyidagi boshqotirmani tuzib yuboryapman:

Rohatoy HAKIMOVA,
Samarqand viloyati, Pastdarg‘om tumanidagi 27-umumta’lim maktabi o‘qituvchisi:

«A» BOSHQOTIRMASI

1. Ukrainadagi shahar.
2. Turkiyaning poytaxti.
3. Ummon Sultonligining poytaxti.
4. Afrika materigidagi davlat.
5. Fil a’zosi yoki Afrika materigidagi davlat.
6. Ruanda Respublikasining poytaxti.
7. Rossiyaning poytaxti.
8. Amerika qit’asidagi davlat va kanal nomi.
9. Afrika materigidagi davlatlardan biri.
10. Livan davlatining poytaxti.
11. Dunyoda maydonining kattaligi bo‘yicha 2-o‘rinda turadigan davlat.
12. Kanadaning poytaxti.
13. Albaniyaning poytaxti.
14. Afrika materigidagi davlat.
15. Angola davlatining poytaxti.
16. Birlashgan Arab Amirliklarining pul birligi.
17. Afrika materigidagi davlat.
18. O‘zbekistondagi tog‘lardan biri.
19. O‘zbekistondagi tog‘ cho‘qqilaridan biri.
20. Yevropaning janubiy qismidagi davlat.
21. Amerika qit’asiga tegishli bo‘lgan orol.
22. Filippin davlatining poytaxti.
23. Ispaniyaning poytaxti.



Toshkentga salom berdim



Aziz bolajonlar! O'g'il qizlarim!

Sizlarni Ulug' bayramimizning 18 yilligi bilan chin yurakdan tabriklayman. Barchangizni qutlay turib, sizlarga havasim kelishini ham yashirolmayman. Men 70 yoshdan oshgan, sizlar yosh bo'lganingiz uchun emas, Mustaqillik chog'larida yashayotganingiz uchun havasim keladi. Chunki bizning bolaligimiz og'ir kechgan...

Mustaqillik nima degani? Bu egamanlik degani. Ya'ni, O'zbekiston otlig' shu aziz yurtning egasiman. Shu ko'klarga yuksalgan tog'lar, shu cheksiz-chegarasiz ko'm-ko'k vodiylar–bog'lar va dalalar, daryolar va ko'llar, bahosi tengsiz konlar–arpa-bug'doy, paxta-ipak, oltin-kumush va hokazolarning egasi men bo'laman, biz bo'lamiz, degani.

SIZLARGA HAVASIM KELADI

Men o'zbek elining o'g'liman, qiziman. Men ozod va hurman, menga hech kim xo'jayin emas, biz ekkan paxtani, g'allani, biz tayyorlagan ipakni, junni, meva va sabzavotni hech kim bizdan tashib ketolmaydi, kimga kerak bo'lsa, sotamiz xalqaro narxlarda, ammo bizga hech kim olti million tonna paxta ekasan va hosilni bizga topshirasan, deb buyurolmaydi. Oddiyroq aytganda, masalan, paxta 100 so'm tursa, 99 so'mini o'zi olar, bizga birini berardi. Bugun esa hammasi o'zimizniki. Topgan boyligimizga xohlasak ko'prik quramiz, xohlasak temiryo'l... Istagancha o'qiymiz, istagancha ishlaymiz, istagancha dam olamiz. Chunki biz bu yurtning egasimiz. Qaddimiz baland, boshimiz tik. Bundan 18 yil burun biz o'z ona tilimizda erkin gaplasholmasdik. Endi mening tilim davlat tili. Hech kim ona tilingda gapirma, deyolmaydi. Biz bu yurtning erkin bolalarimiz.

Siz hammangiz shunday deya olasiz. Shuning uchun ham sizlarga havasim keladi. Mustaqilligimiz, ya'ni egamanligimiz dunyo turguncha tursin! Hammangiz baxtli bo'ling, aziz bolajonlarim!



BIRINCHI QO'NG'IROQ

(Yuqori sinf o'quvchisining 1-sinfga qadam qo'ygan o'g'il-qizlarga tilagi)

Qo'ng'iroq chalindi, Buyuk Qo'ng'iroq
Butun O'zbekiston –Turkiston bo'ylab.
Nima bu, og'ayni, sal boshqacharoq?
Quloq sol, to'xtab tur ozgina o'ylab.

Nega chalindi bu go'zal qo'ng'iroq
Quloqlar jarangga to'la-to'lguncha.
Bilib qo'y, yodingda qoladi bu choq,
Unutilmas bu sas o'la-o'lguncha.

Bir kiyim tikmoqchi bo'lganda odam
Olmasa bo'lmaydi qo'liga igna.
Ko'zlarning nuri ham xuddi ignaday
Harflarga qadalar ohistagina.

Sehrli bu harflar yonma-yon tursa,
«Ona» so'zi chiqar, «uy» so'zi chiqar.
Birining o'rniga boshqasin qo'ysang:
«Ana» so'zi chiqar, «o'y» so'zi chiqar.

Juda qiziq, harflar o'zi sanoqli,
Bir-biriga qo'shsang, yuz ming so'z bo'lar.

Bir so'zdan bir harfni olib tashlasang
«Ona»dan «on» qolar, «bel»dan «el» qolar.

Ona nima o'zi, uy nima o'zi?
O'y nima, bel nima, yana el nima?
Shularni o'ylaymiz ona yurt uchun
Qo'ldan keladi-ku qilmoq har nima!

O'qiymiz, ishlaymiz, ish o'rganamiz,
O'lkani eng ilg'or o'lka qilamiz.
Bu yo'lda kim bizga qarshi chiqolsa
Unga ne qilishni yaxshi bilamiz.

Munofiq va olchoq, yuragi ziqlar
Hech qachon bu elda topolmas hurmat.
Saxovat va shafqat, qo'li ochiqlik
O'zbekda ustuvor qolajak albat.

Qo'ng'iroq chalindi, Buyuk Qo'ng'iroq
Butun O'zbekiston –Turkiston bo'ylab.
Olg'a, ey bolajon, ko'zlari porloq,
Kelajakni birga quramiz o'ylab!

Miraziz A'ZAM

BOLALAR ADABIYOTIGA E'TIBOR – KELAJAKKA E'TIBOR!

Kuni kecha ijodkorlar o'rtasida o'tkazilgan an'anaviy «Eng ulug', eng aziz» respublika ko'rik-tanlovi bolalar uchun qalam tebratayotganlar quvonchiga quvonch qo'shdi.

Unda yurtboshimizning bolalar adabiyotiga e'tibor berish haqidagi fikrlarining amaldagi isbotini ko'rdik. Jumladan, badiiy ijod yo'nalishi bo'yicha mening kamtarona qilgan ishlarim birinchi o'ringa munosib deb topilgani, «Tong yulduzi» gazetasi Bosh muharriri To'lqin Hayitning Amir Temur hayotiga bag'ishlangan asarining 2-o'ringa sazovor bo'lgani, kino san'ati asarlari yo'nalishi bo'yicha yoshlar tarbiyasida muhim o'rin tutgan ko'pgina kinossenariylar muallifi dramaturg Rixsiboy Muhammedjanovning filmlari 1-o'ringa loyiq deb topilishi buning yaqqol isbotidir.

Bolalar adabiyotiga e'tibor katta ijobiy o'zgarishlarning asosi ekanligi hozirgi kunda aniq va ravshan ko'rinayotgan hodisa. Chunki bolalar adabiyotining shaklan va mazmunan yuqori darajaga ko'tarilishi savodxonlikni, kitobxonlikni oshishini ta'minlaydi, bolalar dunyoqarashi, intellektining o'sishiga turtki bo'ladi. Shuningdek, bolalar adabiyoti, bolalar kinochiligi, teatri, ma'rifiy adabiyot, san'atga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Ilk bor qo'liga kitob olgan bolaning adabiyotga, kitobga mehr qo'yishi aynan bolalar yozuvchilariga bog'liq. O'ylaymanki, bu yo'ldagi ishlar hali yanada rivoj topadi va mukammallikka erishadi.

Kavsar TURDIYEVA,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

MUXBIRLIKNING OLIS YO'LLARI

(Boshi o'tgan sonlarda)

Erkin MALIK

ASSALOM, TOSHKENT!

Toshkentdek shahri azimga salom berib kirib keldim. Universitetning jurnalistika fakultetiga hujjat topshirmoqchi bo'ldim. Yozgan arizamni, hujjatlarimni ko'rib, qabul komissiyasidagi bir opa meni bir chekkaga tortdi-da:

– Bizga kira olmaysiz, uka, bekorga ovora bo'lmang,– dedi sekingina. Keyin qo'shib qo'ydi:

– Qarang, bitta arizada uchta harfiy xatoga yo'l qo'yibsiz, bunaqada inshodan o'tolmaysiz.

Xatolarimni ko'rib, peshonamdan ter chiqib ketdi. Muxbirman, deb valdir-vuldur qilib yuravergan ekanman-da. Imloyim yomonligini bilardim. Diktantdan zo'rg'a uch olardim. Yozgan insholarim mazmuniga ko'ra besh bo'lardi-yu, u yog'iga o'qituvchimiz qarashib yuborardi. Opa aytgandek inshodan o'ta olmasligim aniq edi. Ko'z oldimga bo'ynimdagi bir ming qirq so'mlik qarz-u, qishlog'imiz dalalari namoyon bo'ldi. Opa ko'rsatgan imlo xatolar o'sha qarzdek meni ezib turardi. Qarzni to'lash uchun kamida dalada o'n yil ter to'kishim kerakdir, ammo imlo xatoni yo'qotish uchun-chi? O'sal bo'lib turib qolganimgami yo ust-boshimning g'aribligigami, ishqilib, opaning rahmi kelib, dedi:

– Kutubxonada ishlagan ekansiz-a?

– Ha, – deb yutindim.

– Sizga maslahatim, «Nizomiy»ga boring, u yerda bu yil «Kutubxonashunoslik» degan yangi fakultet ochilgan. Sizdaqalarni imtihonsiz ham olishar-ov. Ko'rdim, jurnalistikada o'qimasdan turib ham ancha-muncha narsalarni yozib tashlabsiz. Sizga aytsam, jurnalist bo'lish uchun bu yerda o'qish shart emas. Hayotning o'zi odamni jurnalist qilib qo'yadi. Faqat qiziqish bo'lsa bo'ldi...

Opaning gaplaridan judayam xursand bo'lib ketdim. Go'yo tubsiz jarga tushib ketgan joyimda, opa qulog'imdan tortib, yana tepaga obchiqib qo'ygandek bo'ldi. U kishidan men mutlaqo yangi gaplarni eshitgan edim. Opaga qayta-qayta rahmat aytib, Nizomiy nomidagi pedagogika institutiga qarab piyoda jo'nadim. Yo'lkirani tejashim kerak edi. Opa aytgandek bu yerda hujjatimni xursandchilik bilan qabul qilib olishdi. Lekin imtihon topshirishimni aytishdi. Tarix va adabiyotdan og'zaki, yozmadan insho ekan. O'ylab qolaman, tavba, kutubxonada ishlash uchun ham institutda o'qish kerak ekanmi? Men o'qimasdan ham ishladim-ku... Xullas, uchta imtihondan zo'rg'a to'qqiz ball to'plab, o'qishga kirib oldim. Kutubxonachi bo'lib ishlaganim uchun stipendiyaga ham ilindim. Tekinga ishlagan edim. Xudo bu yoqdan berib qoldi. Institutda ko'p tirajli gazeta chiqar ekan. Yozganlarimni ko'rib, darrov ishga olishdi. Bitta, ikkita maqolam bilan fakultetimizda tanilib qo'ya qoldim. Paxta terimi paytida to yanvargacha dalada bo'lamiz. Talabalar paxta terishadi, men goh otda, goh yengil mashinada yurib, gazeta uchun material yig'aman... Gazetani chop etib, oborib tarqataman...

(Davomi bor)

POYTAXTIM KO'CHALARI

Toshkent 2200 yoshda

SARGUZASHT

Ko'nglingiz bo'lmaydi g'ash
Har qadamda sarguzasht.
Sarguzashtli binolar,
Sarguzashtli kinolar.
Sarguzashtga moyilroq,
Bolalar o'yinqaroq.
Hatto qushlar, hayvonlar
Bizga kelgan mehmonlar.
Uyqusida qolmas bo'sh,
Ko'rar sarguzashtli tush.

CHASHMA

Ko'chamizda chashmalar
Keling suvga tashnalar.
O'ting-u so'qmoqlardan
Simiring buloqlardan.
Kim yana nega tashna?
Do'stlik nomli bu chashma
Bunisi mehr, ishonch,
Kamtarlik, vafo, quvonch.
Barcha ishlarni qo'yib,
Ichinglar to'yib-to'yib.
Topmayapsizmi buloq?
Qidiringlar yaxshiroq.
Ko'rmayapsizmi, demak,
Sizga ko'zoynak kerak.

Ilm olish – igna bilan quduq qazishga qiyoslanadi

18 YOSHLI MAKTAB



Maktabning ham yoshi bo'larkanmi, deysizmi? Albatta, bo'ladi. Xohlasangiz, ustozingizdan o'zingiz o'qiyotgan maktabingiz yoshini so'rab ko'ring. O'ylaymizki, bu savolingizga albatta javob olasiz.

Ta'tilning so'nggi kunlarida bir nechta maktablarda bo'ldik. Aksariyat maktablarda ta'mir ishlari yakunlanib, 2009-2010-o'quv yiliga tayyorgarlik boshlab yuborilgan. Buxoro shahar XTBga qarashli 26-umumta'lim maktabida ham yangi rejalar asosida ishlar qizg'in olib borilayotgan ekan.



– 1991-yilda qurib bitkazilgan ushbu maskan bu yil 18 yoshga to'ldi, – deydi maktab direktori Erkin aka Qo'ziyev. – Mustaqillikka tengdosh bu maktab hozirga qadar ko'pgina yutuqlarga erishib kelmoqda. Bunga o'quv dargohidagi ustoz va murabbiylarining izlanuvchanligi sabab bo'lmoqda. Ular o'z ustlarida tinimsiz mehnat qilib, o'quvchilarning bilimli bo'lishlari uchun katta hissa qo'shmoqdalar. Ana shunday izlanuvchan muallimalarimizdan biri M.Qo'shayeva «Yil o'qituvchisi» tanlovining shahar bosqichida 2-o'rinni qo'lga kiritdi. Bu esa maktabimiz jamoasi uchun juda quvonarli voqea bo'ldi.

Yosh muallima Dilovar Rajabovaning aytishicha, hamkasblarining hamjihatlikda ish olib borishlari ularning katta yutuqlari ekan. Darhaqiqat, muallimaning gapida jon bor. Ta'til vaqti bo'lsa ham, ayrim sinflarda o'quvchilar ustozlari bilan o'zlarini qiziqtirgan masalalar bo'yicha suhbatlashishardi. 1-«A» sinfi deb yozib qo'yilgan eshik yonida bir bolaning singlisiga aytayotgan gaplarini eshitib qoldik:

– Mana sen o'qiydigan sinf. Maktabga kelganingda, tanimasang ham, barcha ustozlarga salom ber. Shunda ular seni odobli qiz ekan, deyishadi. Birinchi dars hammada Mustaqillik darsi bo'ladi. Dars tugagandan so'ng, ustozing barcha sinfdoshlaringga sovg'a beradilar.

– Sovg'a... Qanaqa sovg'a?

– Prezidentimiz Islom Karimovning 1-sinflarga beradigan sovg'alari-da. Katta, chiroyli portfel, kitob, daftarlar, xullas, senga yil davomida kerak bo'ladigan o'quv qurollarining barchasini o'sha kuni olasan.

– Men ham sizdek a'lochi bo'lamanmi?

– Yaxshi o'qisang, albatta a'lochi bo'lasan.

Akasining gaplari singlisiga yoqdi shekilli, qizcha jilmayib qo'ydi.

Bu maktabda a'lochi o'quvchilar ko'p bo'lishi tabiiy. Negaki, maktabning fidoyi ustozlari o'quvchilarining ilmli, bilimli bo'lishlari uchun bor imkoniyatlarini ishga solishlari shubhasiz.

Gulyuz ORIFJONOVA

Dilbar SUVONOVA,
Termiz shahridagi
13-maktab muallimasi,
Xalq ta'limi a'lochisi

INTILGANGA IMKON BOR

Qadri baland, kelajagi buyuk, aql-zakovatli, mustaqil yurtimning iqtidorli o'quvchilari! Men sizlardek navqiron shogirdlarimni istiqlolimizning 18 yilligi munosabati bilan chin dildan muborakbod etaman. Mustaqillik shogirdlarimni orzu-umid, ezgu niyatlarini ro'yobga chiqishiga, ezgulikka ishontirishimga va bunyodkorlikka yo'llay olishimga imkon berdi.

Qadrli farzandlarim, Vatanimizning istiqloli Sizdagi fidoyilik, jasurlik, bilimdonlik, zukkolik hamda komillikka intilishni yuksaltiradi. Tilagim shuki, mustaqillik bergan imkoniyatlardan foydalanib, yurtimning buyuklariga aylaning.

ENDI KICHIK EMASSAN

Va nihoyat sen kutgan kun yetib keldi. Endi uch oy mobaynida ko'nglingga tugib qo'ygan barcha rejalaringni birin-ketin amalga oshirasan. Erta bilan barvaqt uyg'onasan, kattalarga tabassum bilan salom berib, nonushta qilasan. Shundan so'ng, avvaldan tayyorlab qo'yilgan ohorli kiyimlaringni kiyib, maktabga yo'l olasan. Shu onda xayolingdan qadrdon maktabing, sevimli ustozing, biri-biriga o'xshamas sinfdoshlaring bir zum nari ketmaydi. Tasavvuringda go'yo yana bir yoshga katta bo'lgandeksan. E'tibor bergan bo'lsang, ota-onang ham: «Endi kichik emassan, aql bilan ish tut», deya tez-tez eslatib qo'yadilar. Aslida ham shunday. Endi sen bir sinf yuqorida o'qiysan. Avvalgi erkaliklar, dangasaliklar bu yil sendan yiroq bo'lishiga ishonamiz. Axir yangi ta'mirdan chiqqan sinf xonangda mehribon ustozlaringdan saboq olishni juda sog'inganding-ku!

Bu yil o'tgan yilda yaxshi o'zlashtirolmagan fanlaringni puxta o'rganishning ayni vaqti. Atrofingga yaxshilab nazar solib ko'r-chi... Sen havas qiluvchi insonlar o'tkir aql-idrok va zakovat sohiblari ekanliklarini bilib olasan. Ular bu darajaga yetishishlari uchun yoshliklarida puxta bilim olganlar. Butun jahonga mashhur bo'lgan bobokalonlarimiz Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur, Muso Xorazmiy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Mirzo Ulug'bek ham sen kabi bola bo'lganlar. Ko'rdingmi, yoshlikda olingan bilim nimalarga qodir ekan?! Sen ham har daqiqangni g'animat bilib, ilm sirlarini qunt bilan o'rgansang, kezi kelib, ajdodlarimizdek oqil va dono bo'lasan. Buning uchun, avvalo yaxshi o'qib, o'qiganlaringni uqib olishing darkor. Shunchaki maktabga borib-kelish senga yarashmasligini o'zing ham yaxshi bilarsan. Ha, albatta, sen maqsadlaring sari intilasan, maqsading esa mustahkam bilim olish, shunday emasmi, aziz o'quvchi?!

Shunday, deysanmi?.. Unda yangi o'quv yilida senga mustahkam iroda, aql-zakovat va albatta sabr-qanoat tilaymiz. Zero, ilm olish – igna bilan quduq qazishga qiyoslanadi. Bir kun kelib, sen qazigan quduqdan «obi hayot» chiqib, orzularingga yetishing aniq.

ZEBO qiz

O'N SAKKIZGA KIRMAGAN KIM BOR?!

ISTIQBOLLI BU YOSHLAR – ISTIQLOLGA TENGDOSHLAR

IKKI KARRA HARAKAT QILAMAN, –

deydi sambo va dzyudo bo'yicha yetti karra Respublika chempioni Shohruh QO'CHQOROV.

Xalqaro musobaqalarda mahorat ko'rsatib, g'oliblikni qo'lga kiritish – yuksak matonat, jasorat ko'rsatish bilan barobardir. Sportchi bu vaqtda ichki kechinmalarini so'z bilan ifoda etishi chindan-da mushkul. Shohruh bunday jasoratni 14 yoshidayoq ko'rsata oldi.

– Aytish joiz bo'lsa, shuni ta'kidlamoqchi edimki, atrofimdagi sportchi aka-ukalarim g'alabaga bir hissa intilsalar, men ikki karra harakat qilmog'im shartdir,– deydi Shohruh Qo'chqorov. – Boisi, mening zimmamda o'zgacha bir mas'uliyat bor – ona Vatanim Mustaqilligi bilan tengdoshman. Bu mas'uliyat men uchun muqaddasdir...

Shohruhning ustozi, milliy kurash bo'yicha Jahon chempioni Akobir Qurbonov shunday deydi:

– Shogirdim bilan aynan jismoniy holati ustida ishlaymiz. Bir narsani faxr bilan aytishim mumkinki, Shohruh bugungi kunda jahonda tengsiz polvonlardan biridir. Uning qo'lga kiritilmagan ulkan g'alabalari esa hali oldinda.

Joriy yilning bahorida yurtimiz yana bir nufuzli musobaqaga mezbonlik qildi. Poytaxtimizdagi «JAR» sport majmuiga sambo kurashi bo'yicha o'tadigan musobaqalarga qit'amizning eng sara polvonlari jam bo'lishdi. Ushbu bellashuvlarda Osiyo chempionati maqomini olgan polvonimiz Shohruh yana bir bor o'z mahoratini namoyon etib oltin medalini qo'lga kiritdi.

Ayni paytda Toshkent Jismoniy tarbiya institutida tahsil olayotgan qahramonimizga, kelajak orzularing ushalsin, deymiz. Zero, yurt, millatning ertasi mana shunday shijoatli yoshlar qo'lidadir.

Xushxabarning qanoti bor, deganlaricha bor ekan. Navoiy viloyati, Zarafshon shahar tibbiyot kollejining 3-bosqich talabasi Gulnoza Sharopovaning Zulfiyaxonim qizlari safidan munosib o'rin olgani haqidagi xabar zumda tumanga ovoza bo'ldi. Uni tanigan-bilganlar bu xabardan behad quvonib: «Shahrimizda o'tadigan «Navro'z», «Mustaqillik», «Konstitutsiya kuni»ga bag'ishlangan tadbirlarning ssenariylarini yozishda ishtirok etadigan va boshlovchilik qiladigan bu iqtidorli qizimiz shunday oliy mukofotlarga arziydi», deyishdi.

ZARAFSHONNING ZAR QIZI

Tumandagi «Kamalak» bolalar tashkilotining Sardorlar Kengashi raisi, «Kamolot» Yoshlar ijtimoiy harakati viloyat Kengashining faol a'zosi bo'lgan Gulnoza kollejdagi o'qishlari, jamoat ishlaridan bo'shadi, deguncha qo'liga qalam oladi-da, xayollariga erk berib, ijod olamiga singib ketadi. Yozayotgan har bir so'zi, misrasi ustida soatlab, bir necha kunlab mushohada yuritadi. «Mehr sarchashmalari» nomli she'riy to'plami ana shunday izlanishlari mahsuli, 2004-2005-yillarda «Nafosat» yosh qalamkashlar ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida 1-darajali Diplom bilan taqdirlanganligi esa tinimsiz mehnatlari samarasi bo'ldi. Ko'plab she'r va maqolalari bilan «Turkiston», «Hurriyat», «Yosh kuch», «Istiqbol g'unchalari», «Yangi avlod», «Konimex tongi», «Oltin vodiy» kabi respublika va viloyat gazetalarida muntazam qatnashib keladi.

Bugunning intiluvchan, izlanuvchan yoshlaridan biri Gulnoza singari qizlarimiz safi kengayaversin!

O'ZBEKCHA GAPLASHDIK

Bir tilni bilgan bir inson, ikki tilni bilgan ikki inson, deyishadi. Men ham til o'rganishga qiziqaman. Yaqinda Xitoy Xalq Respublikasining Lanjou shahridagi Lanjou universitetida til o'rganib qaytdim.

Til ikki xalqni bir-biriga bog'lovchi vositadir. Shuningdek, o'zbek tilimizni mukammal o'rganayotgan chet ellik birodarlarimiz ham kundan-kunga ko'payib bormoqda. *Bugungi kunda* dunyoning barcha mamlakatlarida o'zbekcha so'zni eshitish mumkin.

Bir kuni universitet hovlisida o'zaro gaplashib turganimizda, oldimizga amerikalik professor domla keldi-da: «Sizlar O'zbekistondanmisizlar?» deb so'radi. Amerikalik domlaning o'zbekcha gapirishi hayratimizni oshirdi. U javobimizni kutmayoq so'zida davom etdi. O'zbekistonning tarixi, uning qadimiy obidalari haqida zavqlanib so'zladi. Ayniqsa, Toshkentning 2200 yilligiga ayni paytda katta tayyorgarlik ketayotgani haqida to'lqinlanib gapirdi. So'zining oxirida poytaxtimizni «Sharqning tengsiz javohiri» deb atadi. Biz ham O'zbekistonning bugungi kuni, hukumatimiz tomonidan biz yoshlarga ko'rsatilayotgan e'tibor, xalqaro Olimpiadalardagi va sport musobaqalaridagi yutuqlarimiz borasida gapirib berdik. Gurungimizga Turkiya, Qozog'iston, Angliya, AQSH, Xitoy, Yaponiya va Koreya davlatlaridan kelgan bolalar ham qo'shilishdi. Biz amerikalik professor bilan o'zbekcha gaplashar ekanmiz, chet ellik tengdoshlarimiz savollariga ingliz, xitoy, rus tillarida qo'shimcha qilib, uning ham hayratini oshirdik.

Bu uchrashuv biz o'zbekistonlik bolalar qalbida yurtimizga bo'lgan faxr va iftixor tuyg'usini yanada oshirib yubordi.

Alisher ABDULLAJONOV,
Sharqshunoslik instituti qoshidagi Sobir Rahimov nomli Akademik litseyining 3-bosqich talabasi

ZULFIYANING YANA BIR QIZI

Istiqlolga tengdosh yoshlarimizdan yana biri namanganlik Muhabbat Rahmonovadir. Mingbuloq pedagogika kollejining 2-bosqichida a'lo baholarga o'qiyotgan bu qizimizni serqirra ijodkor ham deyishadi.

Boisi, u o'z iqtidorini har sohada sinab, tengdoshlari havas qilsa arzigulik yutuqlarga erishdi. Uning ssenariylari asosida tuman o'quvchi-yoshlar texnik ijodiyoti markazi qoshida faoliyat ko'rsatayotgan bolalar va o'smirlar kinostudiyasida «Sevinchning sevinchi», «Hashar», «Xotira», «Kelajak ishonchli qo'llarda» kabi videofilmlar yaratildi.

2006-yilda o'tkazilgan «Sehrli yog'du» kino-fotofestivalining viloyat bosqichida 2-o'rinni qo'lga kiritgan Muhabbatga 2007-yilda omad kulib boqdi: Respublika bosqichida 1-o'rin sohibasi bo'ldi.

Kitob o'qish uning eng sevimli mashg'ulotlaridan biri. Viloyat miqyosida o'tkazilgan «Eng yaxshi kitobxon» ko'rik-tanlovida 2-o'rinni egallagani ham bejiz emas.

Tinib-tinchimas bu qiz o'tgan yili Respublika «Kelajak ovozi» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida qatnashib, «Jurnalistika» yo'nalishi bo'yicha «Faxriy yorliq» bilan taqdirlandi. She'r va maqolalari viloyat nashrlarida muntazam chop etilmoqda.

Muhabbatda tashkilotchilik qobiliyati kuchli. Jamoat ishlarida ham juda faol. Uning «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tuman Kengashi qoshidagi «Fidoyi yoshlar» klubiga rahbar hamda kollej boshlang'ich tashkilotining Sardorlar Kengashiga rais qilib tayinlanishida ana shu jihatlari e'tiborga olingan bo'lsa, ajabmas.

Mazkur yilimiz ham Muhabbatning umr daftariga zarhal harflar bilan yoziladi: U Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibi bo'ldi. Bu oliy mukofot zimmasiga yanada ko'proq mas'uliyat yuklashini yaxshi anglagani holda tinmay izlanyapti, o'qib-o'rganyapti.

ELCHIGA TARJIMON BO'LDI

Amerika Qo'shma Shtatlari elchisi Richard Norland Qashqadaryo viloyatida mehmon bo'lganida, unga Sitorabonu tarjimonlik qildi. Shaharning diqqatga sazovor joylarini aylangan elchi yosh tarjimonning zehni va mahoratini yuqori baholadi.

Sitorabonu Rahmonova Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahridagi ingliz tili, matematika va informatika fanlariga ixtisoslashgan 2-umumiy o'rta ta'lim maktabini muvaffaqiyatli tamomladi. Shuningdek, xorijiy tillarni o'rganish bo'yicha Britaniyaning IELTS programmasi yuzasidan sertifikat sohibi bo'ldi.

Bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazishga intiladigan Sitora Qarshi shahridagi 9-musiqa maktabida fortepyano mutaxassisligini egalladi. Betxoven, Motsart asarlarini sevib chaladi.

San'atsevar, tarjimon qizimiz sportning karate turi bilan ham jiddiy shug'ullanadi.

Sitorabonu bu yil Oliy harbiy bojxona institutiga o'qishga qabul qilindi.

– Qo'lga kiritgan yutuqlarim uchun, avvalo ustozlarim – Shahnoza G'aniyeva, Iroda Panjiyeva, Luiza Odilovadan behad minnatdorman, – deydi u. – Qolaversa, bizga bilim olishimiz uchun yetarli sharoitlarni yaratib berayotgan davlatimizga rahmat degim keladi. Kelgusida bor iqtidorim va salohiyatimni yurtimiz ravnaqi yo'lida sarflayman.

Tahririyatdan:

QADRLI O'QUVCHILAR, O'QING, HAVAS QILING, DARSXONANGIZNING KO'RINARLI YERIGA ILIB QO'YING. SIZGA HAM SHUNDAY YUTUQLAR NASIB ETSIN!

Aytilmagan so'zingdir Vatan!

JO'YLARINGNI KUYLAYMAN

Qalbini ohang bilan jo'r etib kuylayotgan shoirning xotirasida umr karvonlarining qiyossiz sadolari yangraydi.

Yurtning istiqlolini kuylash baxti naqadar zavqli.

Satrlar ham go'yo kuyga tushib, raqs etayotgandek tuyuladi.

Gulzorlarga burkangan Vatanning quchog'ida to'ylar to'yga ulanib borayapti. Bu quvnoq damlarni, ayniqsa, bolajonlarimiz o'zgacha shukuh bilan qarshi olishadi. Qushlar kabi chug'urlashib, ona zamin qo'ynida chopqillayotgan qaqajonlarimizning musaffo osmoni gard ko'rmasin, deymiz. Toki yurak bor ekan, uning nozik torlarini chertish uchun zalvorli so'z, ko'ngilochar she'r, dil mulkini bahoristonga aylantiruvchi kuy hamohang bo'lishi tabiiydir.

Yurtning to'ylarida kuylash baxti qalbimizni tark etmasin.

JALOLIDDIN MANGUBERDI

Qadim o'tgan zamonda,
Ko'hna voha tomonda
O'tgan ekan bir sulton –
Alp kelbat va pahlavon.
Farovon uning eli,
Juda keng ekan fe'li.
G'animga chap bersa dast,
Hech biri kelolmas bas.
Bir yovqur chiqib yomon,
Yurtlarni etib vayron.
Qaramay old-ortiga,
Pahlavonning yurtiga.
Yuboribdi lashkarin,
Chingizxon degan g'anim.
Oriyat, sha'n –elga shon,
Bosh egmabdi pahlavon.
Shunday ulkan qudratni,
Jamlab bori nafratni.
Necha jon bosh beribdi,
Yog'iyga dosh beribdi.
«Chuh» deb uchqur otini,
Butun inson zotini,
Qoldiribdi hayratda,
Kuch-qudratda, g'ayratda.
Kechib o'tib daryoni,
Lol qilibdi dunyoni...

Saida VAFO,
Urganch Davlat universiteti

TOSHKENT

Mehridaryo onamsan, Toshkent,
Nur balqigan xonamsan, Toshkent.
Sen bir sirli olamsan, Toshkent,
Ulug' yoshing muborak bo'lsin!

Daholarning beshigi Toshkent,
Ilm-u hikmat eshigi Toshkent.
Mehr, sog'inch qo'shig'i Toshkent,
Ulug' yoshing muborak bo'lsin!

Non-u iymon shahrisan, Toshkent,
Saxovatning bag'risan, Toshkent.
Nur maskanim –baxtisan, Toshkent,
Ulug' yoshing muborak bo'lsin!

Zamira SAFAROVA

O'ZBEGIMNI DUNYO TANIDI

Shamolday gohida to'zgim kelmadi
O'y-u xayollarim buzgim kelmadi.
Ko'klarga ko'tarib yozgim kelmadi,
O'zbegimni bugun dunyo tanidi.

Mehnatkash xalqimning qo'lida ketmon,
Topgani haloldir, yegani osh-non.
Mehmonga ochiqdir to'kin dasturxon,
O'zbegimni bugun dunyo tanidi.

Xirmonga baraka qo'shgan ham shu el,
Goh toshib, gohida jo'shgan ham shu el.
Olloh nazariga tushgan ham shu el,
O'zbegimni bugun dunyo tanidi.

Mohinur QAYUMOVA,
Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumani

YURTIM JUDA GO'ZALDIR

Yurtim juda go'zaldir,
Husni tengsiz g'azaldir,
Tarixi ko'p azaldir,
Aylanay Boshkentimdan,
O'rgilay Toshkentimdan.

Tarixingdan so'zlasam,
Qo'limdagi qalam ham,
Tilga kirib yozar she'r –
Aylanay Shoshkentimdan,
O'rgilay Toshkentimdan.

Ajdodlar yo'lidasan,
Yoshlarga zo'r qanotsan,
Yana kuch-qudratga to'l,
Aylanay yosh kentimdan,
O'rgilay Toshkentimdan.

Dilshoda AVVALBOYEVA

MUSTAQILLIK

Istiqlolning shamoli,
Yurtim bo'ylab esadi.
Ko'ngilda ajib shodlik,
Bayram ruhi kezadi.

Mustaqillik hurlikdir,
Ozod, erkin diyorim.
Tinchlik oshiyon bo'lgan,
Buyuk baxtim – bahorim.

QISHLOG'IM

Sirli diyorlar bir yon,
Bir yon bog'lar qishlog'im.
Quyoshdek sochar ziyo,
Gulga to'lar quchog'im.

IKKI ZOT

Qushga o'xshar ota-onamiz,
Biz ularning qanotlarimiz.
Bu kun ko'kka parvoz qilamiz,
Buyuk zotlar qadrin bilamiz...

Sevara ARSLONOVA, Qashqadaryo viloyati,
Kasbi tumanidagi 16-maktabning 5-sinf o'quvchisi

YURT POSBONI BO'LAMIZ

Biz bolamiz-bolamiz,
Jasur polvon bo'lamiz.
Katta bo'lib bir kuni,
Quvonchlarga to'lamiz.

Yurtni sevib, onajon,
Harbiylikga boramiz.
Siz o'ylagan munosib,
Yurt posboni bo'lamiz.

Sunnatillo HABIBULLAYEV,
Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumani 45-o'rta ta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi

SHOVQINLARI TONGNI UYG'OTAR

Bolalar har kuni bayroq qilishar
Qishloqning changigan ko'chalarini.
Quyoshni childirma qilmoqchi bo'lar,
Osmonga uzatib qo'lchalarini.

Kunduzni qoralab o'tganida Vaqt,
Uyquga ergashib ketib qolishar.
Qo'llari musht bo'lib, lablar pichirlab,
Tushda ham g'irromlik bilan olishar...

Tongni uyg'otadi yana shovqinlar,
Yalang'och tanlarga nurlar yoqacha.
Quyoshni bayroqdek ko'tarib olgan
Uyg'ongan bolalar endi boshqacha.

Yoshlarning qadami dadil va o'ktam,
Keksalar duoga qo'lin ochadi.
Dunyoni aylanib yurgan davradan
Gohida qiziq bir gap ham qochadi:

Shu yurtning to abad egasi shular,
Ularda har qalay boshqacha havas.
Belida belbog'i bor elning ular
Bolasi ekanin unutmasa bas...

Hamid NORQUL,
Toshkent viloyati,
O'rtachirchiq tumani

QO'LIM YETMAS YULDUZLAR

Qo'lim yetmas, uzoqda
Yaltiraysiz tovlanib.
Buncha uzoqlardasiz,
Turasiz olovlanib.

Nega yerga tushmaysiz?
Sizni ko'rgim keladi.
Porlasam yal-yal yonib,
Sizdek bo'lgim keladi.

Ko'rinmaysiz kunduzlar,
Osmon bag'rida porlab.
Tunda esa ko'kdasiz,
Imo qilasiz chorlab.

Zulmat ostidan kulib,
Yoritasiz dunyoni.
To'lin oy sirdoshingiz,
Taratasiz ziyoni.

Havas qiladi barcha,
Uzoqdasiz bunchalar.
Go'yoki osmon gulzor,
Bag'rida siz g'unchalar.

Zuhra SOLIHOVA

Bilimingni sinab ko'r!

«O'ZBEKISTON MADHI»



Avvalo quyida ta'riflari bayon etilgan kalit so'zlarni toping. Qavsdagi raqam so'zning nechta harfdan iboratliligini anglatadi.

1. O'zbekistondagi hududi eng katta viloyat (6).
2. Orol dengiziga quyiluvchi daryo (8).
3. Kulollik hunarmandchiligi rivoj topgan maskan (6).
4. Vatanimiz oldidagi mardligi, dovyurakligi uchun taqdim etiladigan davlatimizning oliy nishoni (7).
5. Toshkent viloyatidagi tog'lik oromgoh maskani (5).
6. Bu yil tavalludiga 150 yil to'lgan o'zbek ma'rifatparvar shoiri.
7. Samarqand viloyatidagi shahar (11).
8. Poytaxtimizdagi muhtasham san'at koshonasi (8).
9. Olimpiada o'yinlari sovrindori, taniqli o'zbek kurashchisi (9).
10. Tarixiy shahar, viloyat markazi (6).
11. Toshkent viloyatidagi shahar (5).
12. Qoraqalpog'iston Respublikasidagi tuman (10).
13. Surxondaryo va Sangardak daryolari oralig'iga joylashgan shahar, tuman markazi (5).
14. O'zbek xalq og'zaki ijodi asosida ijro etiladigan qo'shiq (4).
15. Vatanimiz hududidagi tizma tog' (5).
16. Ma'muriy-hududiy bo'linma (7).
17. Atlas to'quvchilari shahri (8).
18. Vatanimiz iste'dod sohibalari sazovor bo'ladigan davlatimiz mukofoti (7).
19. O'zbekiston janubi Tojikiston chegarasidagi tizma tog' (7).
20. Ko'plab yetishtiriladigan texnika ekini (5).
21. Safardagi hamroh (6).
22. Eng janubiy viloyat (11).

Endi shakl atrofidagi raqamlarni kalit so'zlari javoblaridagi birinchi harflar bilan almashtirib, muammonomani hal eting, bunda ulardan o'zbek shoiri Azim Suyun qalamiga mansub «O'zbek», «O'zbekiston» she'ridan to'rt misra ayon bo'ladi.

Foziljon ORIPOV tuzdi

BOG'DAGI UCHRASHUV

Bog'da buvi, uch ona, ikki xola, ikki o'g'il, besh qiz, ikki aka-uka, besh opa-singil, uchtasi qiz, ikkitasi o'g'il bo'lgan jiyanlar yig'ilishib, dam olishmoqda. Bog'da hammasi bo'lib necha kishi yig'ilishgan?

HOVUZDAN SUV OLISH

5 va 9 litrli chelaklar yordamida hovuzdan 3 litr suvni qanday qilib olish mumkun?

TORTNI TAQSIMLASH

Qanday qilib tortni pichoq bilan 3 marta 8 kishiga teng taqsimlash mumkin?

TEJAMLI KESIM

Qanday qilib 5 ta olmani birortasini ham 6 ta bo'lakka bo'lmasdan turib, 6 kishiga teng bo'lib berish mumkin?

Umida HAKIMOVA,
Toshkent Bank kolleji o'qituvchisi

BU YURT BIZGA ATALGAN

Bola qalbi endigina gullagan bog'ga o'xshaydi, u ma'naviy ozuqa bilan ta'minlab borilsa, yurtga bo'lgan muhabbat tuyg'ulari ham kurtak yoza boradi: Vatan ishqi bilan yashagan inson esa buyuk ishlarga qodir bo'lishini yaxshi bilamiz. Biz uchun jonajon O'zbekiston yagona, u bizga atalgan muqaddas zamin.

Shu tuyg'u har birimizning, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodning qalbiga jo bo'lib, hayoti mazmuniga aylanishi darkor. Ayni qo'shaloq bayramlar arafasida Sirg'ali tumani Ma'naviyat va ma'rifat Kengashining navbatdagi yig'ilishida ana shu masalaga jiddiy e'tibor qaratildi. Yig'ilishda tuman hokimining o'rinbosarlari, tumandagi ko'plab tashkilotlarning mas'ul xodimlari ishtirok etdilar. Unda so'zga chiqqanlar milliy ma'naviyatimizning ma'no-mohiyati, aholining keng qatlamlarini, ayniqsa, yoshlarni Vatanga muhabbat, istiqlolga sadoqat ruhida tarbiyalash, tumandagi turli tashkilotlarda xuddi shu mavzuda olib borilayotgan chora-tadbirlar, shuningdek, ota-ona, oila, mahalla va komil inson tarbiyasi bilan bog'liq masalalar yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bayon etdilar. Kengash ishida qatnashgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati Ziyodulla Ubaydullayev, Respublika Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi rahbari Shavkat To'rayev, «Tong yulduzi» gazetasi Bosh muharriri To'lqin Hayit o'z fikrlari bilan o'rtoqlashdilar.

«Bunday yig'ilishlar birinchi galda yosh avlodning tarbiyasi, ularni ma'nan sog'lom va komil inson qilib tarbiyalash ishlarimizda qo'l keladi», dedi Kengash ishini boshqargan tuman hokimining o'rinbosari Botir Shoislomov. Mazkur yig'ilish barchada birdek iliq taassurot qoldirdi.

SHAHNOZA,
yosh muxbirimiz

Ajdodlarimizni ulug'laymiz

Qadrli bolalar!

Alloma Abu Rayhon Beruniy bobomizning ilmiy asarlari bilan bir qatorda hikmatlari, qaydlari, she'rlari ham juda mashhurdir. Keling, ulardan siz ham bahramand bo'ling.

YORUG'TOSH



Abu Bashar Sayrafiy bir kuni tog'asinikiga borgan ekan. Shunda uzukka qizil yoqutdan bo'lgan bir ko'zni keltirishibdi. O'sha yoqutni kitob yozuviga qo'yishsa, kechasi kitobni o'qib bo'libdi. Hikoya qiluvchi bundan juda taajjubda qolib so'zlagan, chunki bu tun qorong'usida bo'layotgan ekan, shaffof toshga biror chiroqdan nur tushmay turib, o'zi yoritayotgan ekan. Bu yoqut xuddi yarim dumaloq shaklda ekan, yuzini yozuv bitilgan mayda satrlarga qaratilganda, o'ziga o'xshagan yarim dumaloq billur bilan xatni o'qish mumkin bo'libdi. Chunki billur orqasida ko'rilgan xatlar ko'zga yo'g'onlashib, satrlar orasi kengayib ko'rinibdi. Nima uchun bunday ko'rinishini oynak haqidagi kitoblar yechib beradi.

«MAYMUNLAR TOG'I»

Hindistonda Qihkind – Maymunlar tog'i bor. Maymunlarning podshohi har zamonda to'dasi bilan chiqib, o'zlari uchun tayyorlab qo'yilgan joylarga kelar ekan. U yerning odamlari maymunlar uchun guruchdan ovqat pishirib, barglar ustiga qo'yib, ularning keladigan joylariga qo'yisharkan. Ular ovqatni yeb, o'rmonga qaytib ketar ekanlar. Agar beparvolik qilib ovqat berilmasa, maymunlar kelib, u yerdagi aholi tinchini buzishi tayin.



QO'G'IRCHOQ BILAN VAQTI CHOG'

Kuni kecha poytaxtimizning G'afur G'ulom nomli madaniyat va istirohat bog'ida «Qo'g'irchog'bozlik san'ati» bayrami bo'lib o'tdi. Unda Respublika qo'g'irchoq teatri, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarimizda faoliyat ko'rsatayotgan havaskor qo'g'irchoq teatrlarining aktyorlari qatnashdilar.

Bayramdan avval O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Respublika «Hunarmand» uyushmasi, Xalqaro «Oltin meros» xayriya jamg'armasi, O'zbekiston oqsoqollar Kengashi, «Mahalla» jamg'armasi, Respublika «Kamolot» Yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, Toshkent shahar Madaniyat va sport ishlari bosh boshqarmasi vakillari ishtirokida matbuot anjumani ham bo'lib o'tdi. Anjumanda qo'g'irchoqbozlar o'zlarining fikr- mulohazalarini bildirdilar. Soha mutaxassislari maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida qo'g'irchoqbozlik san'ati to'garaklarini tashkil etish haqida ham fikr yuritdilar.

Shu kuni boqqa tashrif buyurgan jajji bolajonlarga qo'g'irchoqbozlar o'zlari yasagan qo'g'irchoqlari yordamida sahna ko'rinishlarini namoyish etdilar, sovg'alar ulashdilar.

Ishonchimiz komilki, bu sovg'alar sochlari jamalak qo'g'irchog'i bilan vaqti chog' o'tadigan kichkintoylarni milliy qadriyatlarimizni ulug'lashga o'rgatadi.

Mirasqar MAGRUPOV

...ASRANG!

Kelajakka bugundan poydevor yaratish lozim. Shu maqsadda, kuni kecha «Ayolning jamiyatdagi mavqeini oshirish, onalik va bolalik muhofasi, sog'lom turmush tarzini rivojlantirish mavzularining ommaviy axborot vositalarida yoritilishi» mavzuidagi seminar- trening bo'lib o'tdi.

Tadbirda O'zbekiston Xotin- qizlar qo'mitasi, nodavlat – notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi vakillari va boshqa mutaxassislar ishtirok etdilar. Amaliy mashg'ulotlar asosidagi trening qiziqarli o'tdi. Deputat Anora opaning hayotiy misollari, oilada bolaga e'tibor, uning kelajagi ko'proq onalarga bog'liqligi haqidagi fikrlari, moderator Nigora G'afforovaning seminar qatnashchilari bilan o'tkazgan amaliy mashqlari yig'ilganlarni befarq qoldirmadi.

Kelajak bugundan boshlanadi, aziz bolajonlar. Shunday ekan, milliy urf-odatlarimizni ko'z qorachig'idek asrang!

Sardor SODIQOV,
yosh muxbirimiz

Tingladim: olisdan bir ohang keldi,
Ona allasiday sehrli, mayin

Ustozdan maktub

Qadrdon bilim maskani, ustozlari, do'stlarini sog'inib, maktab bag'riga qaytgan o'quvchilarning qalblarida quvonch va hayajon. Bilimlar kuni, Mustaqilligimizning 18 yilligi hamda poytaxtimizning 2200 yilligi bayramlari munosabati bilan ustozlarini, do'stlarini qutlashadi, ta'til taassurotlari bilan o'rtoqlashishadi. O'qituvchilarining samimiy tilaklaridan bahramand bo'lishadi. Shunday hayajonli damlarda ustozining maqolasini sevimli gazetasida o'qish, ulardan tabrik olish shogirdlar uchun ajoyib sovg'a bo'lsa kerak-a?!

Shu maqsadda ushbu sahifamizda ana shunday maktublardan jamladik.

Nasiba NORQULOVA,
Jizzax viloyati, Zomin tumanidagi 65-maktabning 3-sinf o'qituvchisi:

KASBIMNI ULUG'LAYMAN

Bolaligimda ustozlarim ortidan ergashib, men ham o'qituvchi bo'lishni orzu qilardim. Bugungi kunda orzumga yetdim, o'qituvchi bo'lib ishlayapman.

Mening o'quvchilarim hali juda yosh. Lekin shu yoshdanoq biror kasbga mehr qo'yib ulg'ayishsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu o'rinda o'quv yilining so'nggi kunlarida o'tkazgan bir mashg'ulotim haqida to'xtalmoqchiman. O'shanda o'quvchilarim ishtirokida «Kasbim – faxrim» deb nomlangan ochiq tarbiyaviy soat o'tkazgandim. Darsda o'quvchilarim o'zlari tanlagan kasblariga oid she'rlar, topishmoqlar aytdilar, sahna ko'rinishlari namoyish etdilar. «U qanday kasb egasi?» deb nomlangan o'yinda faol ishtirok etdilar, «Quruvchi» deb nomlangan kasb daraxtiga so'zlar yozdilar, «Klaster» o'yinini musobaqa tarzida o'tkazdilar. Dars nihoyasida o'quvchilarim kasb-hunar egallash orqali inson o'z kelajagiga mustahkam zamin yaratishini anglab yetdilar.

Mana, yangi o'quv yilini ham boshlab yubordik. Hamkasblarimni, barcha o'quvchilarimni yangi o'quv yili hamda yurtimizda nishonlanayotgan qo'shaloq bayramlar munosabati bilan chin dildan tabriklayman! Bu o'quv yilida ham ana shunday mashg'ulotlarni davom ettirgan holda o'quvchilarimga bor bilim va mahoratimni o'rgatish niyatidaman.

TABIATGA MADHIYA



Subhidam gullarga bezandi olam,
Turfa chechaklarning atri dimog'da.
Shoir tili lol-u, ojizdir qalam,
Madh etar oshyonin bulbullar bog'da.

Bag'rimni qirlarning bag'riga berdim,
Ko'zlarimni yumdim: sas-sado yeldi.
Xayolan bolalik damlarga qaytdim,
Ovuldan momomning ovozi keldi.

Xayollar chulg'adi shoshib sarsari,
Yashil maysalarga boshimni qo'ydim.
Onam bag'ri kabi issiq taftlari,
O'sha taftni qo'msab sog'inchni tuydim.

Tingladim: olisdan bir ohang keldi,
Ona allasiday sehrli, mayin.
Bari bilganlarim xotirot bo'ldi,
Angladim, bolalik qaytmasi tayin.

Feruza PARDAYEVA

Asliddin BOLIQULOV,
Sirdaryo viloyati, Xovos tumanidagi 10-umumta'lim maktab o'qituvchisi:

HAVAS BILAN YASHAYDILAR

«Tong yulduzi» mening bolalikdan qadrdonim. Hozirgi kunda ham oddiy bir qishloq o'qituvchisi sifatida uni katta qiziqish bilan o'qib boraman. O'zim rahbarlik qilayotgan 5 - «A» sinf o'quvchilarini aynan shu nashrga obuna qildirganim ham bejiz emas. Gazetaning har bir sonini birgalikda o'qib, maqolalarini tahlil qilib boramiz. O'quvchilarim respublikadagi tengdoshlari qo'lga kiritayotgan yutuqlari haqida o'qib, «Yangi avlod» Bolalar ijodiyoti festivali g'oliblariga havas qilib, ulardek bo'lishga intilishyapti. Oralarida she'riyatga, rassomlikka, hunarmandchilikka ishtiyoqmandlari ham ortib boryapti. Ayni paytda iqtidorli bolalarning «Yangi avlod» tanloviga qizg'in hozirlik ko'rayotgan o'quvchilarimni qo'llab-quvvatlab boryapman. Zero, qishlog'imiz, qolaversa, yurtimiz kelajagi ana shu yoshlarimiz qo'lidadir.

Elmira OCHILOVA,
Jizzax viloyati, Jizzax tumani

BILGANLARIM ULARNIKI

Men tumandagi 12-maktab o'quvchilariga tasviriy san'at fanidan dars beraman. 2009-yili «Tashabbus, hunarmandlar tanlovi»da miniatyura san'ati bo'yicha tuman bosqichida 1-o'rin, viloyat bosqichida esa 2-o'rin sohibi bo'ldim. Men sopol idishlar, kadi ipak matolarga rasm chizaman. Bilganlarimni shogirdlarimga ham o'rgatishga harakat qilyapman. O'quvchilarimning rasm chizishga ancha qo'llari kelishib qolgan.



Bugun o'quvchilarim chizgan rasmlardan, shuningdek, o'z ijod namunalarimdan yuboryapman. Ular sevimli nashrimiz sahifalarida e'lon qilinsa, behad mamnun bo'lardik.

ENG YOSH ISHTIROKCHILAR

26-avgust kuni qadimiy va navqiron Samarqand shahrida «Sharq taronalari» yettinchi Xalqaro musiqa festivali ochildi.

Zander Li Big Mauntin endigina 4 yoshga to'lgan bo'lsa-da, 7 yoshli opasi Saydja, otasi Bufallo, amakisi Raymond, akasi Artur bilan «Sharq taronalari» Xalqaro musiqa festivalida ishtirok etishga muyassar bo'ldi. AQSHlik san'atkorlarni Registon maydoniga chiqqan festival ishtirokchilari gulduros qarsaklar bilan qarshi oldilar.

– Biz samarqandlik tengdoshlarimiz bilan do'stlashganimizdan xursandmiz, – deydi yosh san'atkorlar. – Biz o'z yurtimizga qaytib, barcha ko'rganlarimizni do'stlarimizga, vatandoshlarimizga so'zlab beramiz.

Ularning gapiga ota-onalari ham qo'shimcha qildilar:

– O'zbek xalqiga bizga qaratayotgan e'tiborlari uchun minnatdorchilik bildiramiz. Shu bilan birga, barcha o'zbekistonliklarni 18 yillik shodiyona bayrami hamda Toshkentning 2200 yilligi bilan muborakbod etamiz. Bu go'zal va boy diyorda yashaydigan aziz bolajonlarga havas qildik.

Flora FAXRUTDINOVA
(internet orqali olindi)

KULING, UMRINGIZ UZAYADI



–Dada, tushimda siz menga kichkina shokolad olib berdingiz.

–Yaxshi bola bo'lib, a'lo baholarga o'qisang, tushingda kattarog'idan ham olib beraman.

– Dadajon, gilamni bir marta qoqqan edim, yuz so'mlik tushdi.

– Unday bo'lsa, qattiqroq qoqaver, ming so'mliklar ham tushib qolar.

Onasi qiziga ta'lim berayapti:

– Ona qizim, hech qachon dasturxonga kattalardan oldin qo'l uzatma, agarda bir narsa yeging kelsa, menga sekingina ayt, nafsingni tiygin, xo'pmi?

– Xo'p bo'ladi, bo'lmasa, hech kim yo'qligida bir qutigina konfetdan, olmalardan, bananlardan olib bering...

M.UBAYDULLAYEVA to'pladi



YIRIK SHAFTOLI

Eng yirik shaftoli Buyuk Britaniya poytaxti Londonda yetishtirilgan. Uning og'irligi 411 gramm, diametri 30,4 santimetrni tashkil qiladi.

BIRINCHILIKNI OLGAN QOVOQ

Dunyodagi eng og'ir vaznli qovoqni Kaliforniya shtatida 55 yoshli fermer Djoyel Xoland yetishtirgan.

Kaliforniyada har yili an'anaviy tarzda o'tkazilib kelinadigan qovoqlar festivalida bu qovoq birinchi o'ringa munosib topilgan.

Ikkinchi o'rinni esa Nyu-jersilik fermer Robert Genkenz yetishtirgan 304,3 kilogrammni tashkil etuvchi qovoq egalladi. Uning kattaligi aylanasiga 3,63 metrni tashkil qiladi.

ULKAN QO'ZIQORIN

Uning balandligi 70 santimetr, og'irligi 20 kilogramm keladi. Meksikadan topilgan ushbu qo'ziqorinning bu qadar kattaligiga ekologlar atrof-muhitning ifloslanganligini sabab qilib ko'rsatmoqdalar.

ENG OG'IR MANGO

Gavaya orollari Kanlua-Kona shahrida istiqomat qiladigan Kollin Porter dunyodagi eng katta mango mevasini yetishtirgan. Buni «Ginnesning rekordlar kitobi» vakillari ham tasdiqlagan. Mevaning og'irligi salkam 3 kilogrammni tashkil qiladi.

BAYRAM DASTURXONIGA

O'RAMA KULCHA

Kerakli masalliqlar:
1 ta margarin,
4 osh qoshiq qatiq,
2 piyola un.

Tayyorlanishi: 2 piyola unga 1 ta margarinni solib uvalanadi. 4 osh qoshiq qatiqqa ozgina soda solib aralashtiriladi va xamir qoriladi. Xamir 30 daqiqa muzlatgichga qo'yiladi. 5 zuvala xamir olinib, har birini yoyib, 8 bo'lakka bo'linadi. So'ngra, o'rama shaklida o'raladi-da, o'rta olovda pishiriladi. Pishgan o'rama kulchalar ustiga qand upasi sepiladi.

KO'KATLI SALAT



Kerakli masalliqlar: 200 gramm salat barglari, 3 dona qaynatilgan tuxum, ukrop va petrushka ko'katlari, 1 stakan mayonez, tuz, 1 osh qoshiq limon sharbati.

Tayyorlash usuli: salat barglarini mayda to'g'rang. Tuxum, ukrop va petrushka ko'katlarni ham to'g'rang. So'ng, hammasini aralashtirib, ustidan mayonez va limon sharbatini quying.

POMIDORLI TUXUM



Kerakli masalliqlar: 2-3 dona tuxum, 2-3 dona pomidor, 1 dona bulg'or qalampiri, tuz, 2 dona piyoz, 100 gramm o'simlik yog'i, 50 gramm mayonez.

Tayyorlash usuli: sabzavotlarni yuvib, pomidor va bulg'or qalampirini halqacha shaklida kesing. Qizib turgan tovaga o'simlik yog'i solib, pomidor va bulg'or hamda piyozni qovuring. Idishga tuxum chaqib, tuz, mayonez qo'shib, yaxshilab aralashtiring. Aralashmani qovurilayotgan sabzavotlar ustidan quying, tovaning qopqog'ini yopib, past olovda 3-5 daqiqa dimlang.

SHO'R BODRINGLI SALAT

Kerakli masalliqlar: 3 dona piyoz, 4 dona tuzlangan bodring, 2 osh qoshiq smetana, petrushka ko'kati, shakar, sirka, tuz.

Tayyorlash usuli: piyozni halqacha shaklida to'g'rab, suv, sirka solib qaynating. Mayda to'g'ralgan bodring va ko'kat bilan aralashtiring. Ta'bga ko'ra tuz va smetana qo'shing.

Nargiza ABDULLAYEVA tayyorladi

Oq donalar, Qora donalar omadlimi?..

Ismi sharifini birinchi bor eshitg odam bu bolani eronlik bo'lsa ker...., deb o'ylaydi. Yo'q, adashasiz. Bu bolakay toshkentlik. U «Paxtakor» bolalar futbol akademiyasida tahsil oladi.

CHAP QANOTDA ATHAMZODA

Umarjon tajribali murabbiy Lenur Yeremeyevning iqdidorli shogirdi. U 1998-yilda tug'ilgan bolalar futbol jamoasining chap qanot himoyachisi. Tengdoshlari orasida umidli futbolchi sifatida tan olingan. Ko'pchilik u haqda aql bilan to'p oshirish mahoratini puxta egallagan bola deb maqtashadi.

Bolalar, futbolchilik kasbi qiyin. Uning muoffaqiyati tinimsiz mashg'ulotlarda namoyon bo'ladi. Bo'lajak futbol qiroli Umar Adhamzoda yozgi ta'til kunlarida tog' bag'rida joylashgan oromgohda jamoasi bilan mashg'ulotlarda bo'ldi. Sentabr eshik qoqib turishiga qaramay, futbolchi bolakaylarga tinim yo'q. Ular maydonda bir necha bor o'rtoqlik uchrashuvlari o'tkazdilar. Qadrdon maktabini sog'ingan futbolchilarning yumushlari bir hissa ko'paydi. Maktabdagi darslar va maydondagi saboqlarga vaqt topib, kelajakdagi orzular yo'liga peshvoz chiqayotgan Umarjonga biz sog'liq, salomatlik tilab qolamiz. Futbolchi bolalar maktabda yaxshi o'qimaydi, deb o'ylamang. Ular avval maktabga, keyin esa maydonga oshiqadigan bolalar. Uning kelajakda niyati katta futbolchi bo'lib muxlislar olqishiga erishish.



Elbek Mirzo Ulug'bek tumanidagi 99-maktabning 3-sinfida o'qiydi.

Elbek 9 yoshda. U shaxmatga qiziqadi. Ta'til davomida tirishqoq bu bolakay musobaqalarda chiniqdi. Mahallada, oromgohda va respublika festivallarida qatnashib, munosib o'rinlarni egalladi.

Biz Elbek bilan shaxmat federatsiyasi binosida tanishdik. U bu yerda Toshkent

QORA DONALARNING QUVONCHI

shahrining 2200 yilligi va Mustaqillikning 18 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan bolalar shaxmat bayrami festivalida tengdoshlari bilan dona surdi. Musobaqaning birinchi kunida qora donalarni surib yutgan Elbek, ikkinchi kuni oq donalarda o'ynab g'olib bo'ldi. Musobaqa to'qqiz kun davom etdi. Baribir oyim to'g'ri aytibdilar. Menga oq donalarda omad keldi, – deydi kichik shaxmatchi Elbek Hasanov.

– Qora donalarda ko'pincha menga omad kulib boqardi. Onam esa ranglarda omad yo'q, ishonib qolma bu fikrga, deydilar. Men allaqachon qora donalar bilan o'ynaganimda, g'olib bo'lishimga ishonib qolgandim.

Bolalar, tengdoshingiz Elbekni oyisi uning behuda yurmasligi, doimo uyda, to'garakda shaxmat va rasm chizish, ustozining yonida bo'lishidan quvonadi.

Elbek, sening bugungi bo'sh vaqting zoye o'tmayotganining o'zi ertangi kelajakning yorug' yo'llarini belgilab turibdi. Hayotda qadaming qutlug', niyatlaring ulug' bo'lishini tilaymiz.

OTABEKNING O'TLI ZARBASI

Kechagina Olmaliq shahridagi «Pahlavon» sport saroyida yoshlar o'rtasida xalqaro turnir bo'lib o'tdi.

Ushbu turnir O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan murabbiy tajribali bokschi Vladimir Shin sovrini uchun tashkillashtirildi.

Musobaqada mamlakatimizning barcha viloyatlaridan va Qozog'iston, Qirg'iziston hamda Tojikistondan kelgan 172 nafar «charm qo'lqop»ning bo'lajak yulduzlari qatnashdilar.

Andijon boks maktabi vakillari bahslarda hammadan kuchli ekanliklarini namoyish etdilar. Ular musobaqada turli vaznlar toifasida uchta oltin, ikkita kumush va oltita bronza medalini qo'lga kiritdilar. Andijonliklar quvonchi cheksiz. Ayniqsa, 75 kg. vazn bilan Otabek Ibrohimovning mahorati muxlislar qalbidan joy oldi. Xuddi shu musobaqada Otabek akangiz yangi boks yulduzi, degan nomga sazovor bo'ldi.

Biz ham Otabek Ibrohimovga Olmaliqda o'tgan turnirdan Fransiya jahon chempionatiga yo'l olishiga tilakdoshmiz.

Armanistonning Jermuk shahrida shaxmat bo'yicha FIDE Gran-prisining beshinchi bosqichi yakunlandi.

Unda hamyurtimiz sobiq jahon chempioni Rustam Qosimjonov Vatanimiz sharafini munosib himoya qildi. Qizig'i, bu musobaqalarning 10 ta turida ham Rustam akangiz faqat qora donalarda o'ynadi.

O'n uchta o'yinning uchtasida g'alaba, to'qqiztasida durangga imzo chekdi. Faqatgina isroillik Boris Gelfandga yutqazib qo'ydi. Shunday qilib, Qosimjonovning nufuzli musobaqada jamg'argan 7,5 ochkosi uni Gran-prining to'rtinchi pog'onasiga loyiq deb topdi.

TO'RTINCHI POG'ONADA

OPA-UKA SHOVVOZLAR

Gazetamizning yosh muxbirlaridan biri Gullolani ilk bor ko'rganimdayoq, shu qiz sportchi bo'lsa kerak, degan o'y kechgandi xayolimdan. Chunki uning yurish-turishi, tashqi ko'rinishi, qat'iyatliligi sportchilargagina xosdek edi, nazarimda.

Adashmagan ekanman, Buxoro viloyati, Vobkent tumanidagi 1-maktabning 6-sinf o'quvchisi Gullola Asadova ham, uning ukasi Asilbek ham sportga oshno tutinganlardan ekanlar. 2007-yildan buyon turon milliy yakka kurashi to'garagiga qatnab kelayotgan Gullola ko'plab musobaqalarda ishtirok etib, 1-2-3-darajali Diplomlar bilan taqdirlandi. Ukasi Asilbekning qo'lga kiritgan yutuqlari ham Gullolanikidan kam emas.

Yozgi ta'til kunlarida sport mashg'ulotlarini davom ettirgan bu sportchi tengdoshlaringizning orzulari cheksiz: kelgusida mohir sportchi bo'lib, ota-onasi, ustozlari ishonchini oqlash. Yana, g'oliblik shohsupasining yuqori pog'onalarini egallashdir.

Toshkent 2200 yoshda

18 yil

SHAVKATLI SHAHRIM





– Kimda qanday taassurot qoldi?.. Sen nima deysan, Nigora?

Qizcha charos ko'zlarini pirpiratib:

– Juda chiroyli maydon, ustoz! – dedi shirin va o'ktam ohangda. – Toshkent – mamlakatimiz poytaxti. Uni «Sharq darvozasi» deb atashadi, – ustoz ularga ulug'vor maydon haqida gapira ketdi. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan 2005-yilning dekabrida bu yerda farzandini bag'riga bosgan ona haykali o'rnatildi. Undan so'ng Ezgulik arkasi bunyod etildi. Uning uzunligi 150, yon tomondagi ustunlarning balandligi 10, asosiy peshtoqlarning balandligi esa 12 metr bo'lib, o'n oltita oq marmardan ishlangan ustundan iborat. Ularning tepa qismiga o'rnatilgan turnalar esa tinch, moviy osmon uzra parvoz qilayotganga o'xshaydi. Naqadar jozibador holat.

Maydondagi yana bir jozibador inshoot O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati binosidir. Bino qisqa muddat ichida juda ulug'vor va muhtasham tarzda bunyod etildiki, quruvchilarimizning bunday go'zal bunyodkorlik ishlaridan hayratlanmaslik mumkun emas. Biz ularga o'zimizcha zavqlanamiz. Chindan ham azim poytaxtning bosh maydoni bugun kishi qalbini o'ziga butunlay maftun etadi. Uni so'z bilan emas, ko'z bilan ko'rib, bahra olishga ne yetsin?!

Toshkent...

Hurriyat quyoshi balqib, xalqimizning azaliy ezgu orzusi amalga oshgan muqaddas maskan. Mustaqilligimiz e'lon qilingan shavkatli shahar.

Bugun ulug'vor binolar uzra ko'zimizni-da, dilimizni-da quvnatib, yashnatib, o'zimizning go'zal bayroq nafis hilpirab turibdi. Moviy, oq, yashil ranglar yuragimizga taskin berib, zavqimizga zavq qo'shadi. «O'z bayrog'im, o'z tug'im bor mening, tenglar ichra teng o'zbek bolasiman, O'zbekiston dilbandiman», deya g'urur otiga qamchi bosadi ozod yurtimizning jajji navnihollari.

Ustoz bolalarni yana savolga tutadi:

– Madhiyamiz qaysi shaharda e'lon qilingan?

Azim poytaxtning bir-biridan fusunkor favvoralari, yam-yashil maydonlari, keng, ravon ko'chalarini kezgan bolakaylarning yuzlarida, ko'zlarida quvonch nurlari porlaydi. Mustaqillik maydonidagi katta favvora ostidan o'tib salqinlab qaytisharkan, ustozlari ularni savolga tutdi:

– Toshkentda! – bir ovozdan jo'r bo'lishadi ular.

– Qachon?

– 1992-yil dekabr oyida!

Bolalarning biyron javoblari qalbimizga faxr tuyg'ularini in'om etadi.

Toshkent – tinchlik va bunyodkorlik shahri, yirik sanoat korxonalari, o'nlab ilmiy-tadqiqot va loyiha institutlari faoliyat olib borayotgan dunyoga dong'i ketgan maskanlardan biri. Jahon andozalariga mos zamonaviy «Toshkent» xalqaro aeroporti, go'zal va muhtasham temiryo'l vokzali, yer osti metro koshonalari, bugungi kun talablariga to'liq javob beradigan qo'sh yulduzli mehmonxonalar ishlab turibdi.

Toshkent – madaniyat markazi. Ko'plab teatr va muzeylar, dam olish bog'lari va xiyobonlar mazmunli hordiq chiqarish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, qayta ta'mirlangan va yangidan barpo etilgan ko'plab zamonaviy sport saroylari va stadionlar ham shahar ko'rkiga ko'rk qo'shib turibdi.

Suhbat Amir Temur bobomizning muazzam haykali poyida yanada qizg'in tus oldi. Bolalar yosh Temurbek haqida bilganlarini so'zladilar, ustoz esa ularga haykalning yaratilish tarixi haqida qisqacha gapirib beradi.

Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning ulug'vor haykaliga nazar tashlar ekanlar, bobomizning tinch, osuda, go'zal shahar oralab jilmaygan kuyi shahdam qadam bilan kelayotganlarini tasavvur etadilar. Poylariga anvoyi gullar to'shab, g'azallaridan namuna o'qiydilar.

– Bobo, biz Mustaqilligimizning o'n sakkiz yilligi, azim Toshkentimizning 2200 yillik to'ylari nishonlanayotgan damlarda Sizni ham ziyorat qilgani keldik, – deya ta'zim qiladilar.

O'zining 2200 yillik to'yini ulug'vor va go'zal qiyofada kutib olayotgan azim Toshkent bo'ylab qut-baraka, allaqanday yoqimli fayz kezib yurgandek ko'rinadi.

Ustoz bolalarga qarab:

– Sayohatimiz ham yakunlanib qoldi, endi nima deyish kerak? – deb so'radi.

Biz bolalarning qanday javob berishlarini qiziqib kutdik.

Ular qo'llarini ko'ksilariga qo'yib:

– Qutlug' yoshing muborak! Azim Toshkent! – deyishdi baravariga. Yangroq ovoz o'nlab osmono'par binolar, yashil bog'-rog'lar uzra jaranglab aks-sado berdi. Bolalarning xursandchiligiga hech nima yetmaydi.

O'ynang, kuling va yayrang mustaqil yurtimning aziz bolalari!

O'ZBEKXON

Maxsus sonni tayyorlaganlar:

To'lqin HAYIT,
Feruza JALILOVA,
Feruza ADILOVA,
Ma'mura MADRAHIMOVA,
Axtamqul KARIMOV,
Yusuf ABDULLAYEV,
Sayyora JO'RAYEVA,
Fazliddin SHOYODGOROV,
Zuhra MUHSIMOVA,
Olovuddin ARIPOV.



Gazetaning navbatdagi soni 14-sentabrda chiqadi

TONG YULDUZI

Muassislar:
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin SHOYODGOROV
Olovuddin ARIPOV
Navbatchilar:
Axtamqul KARIM,
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
G'ayrat SHOUMAROV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 700129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru

Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
4 bosma taboq.
ISSN 2010-6092

Adadi - 26425
Buyurtma N: J 8003